SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

4-maxsus son (5-jild)

2025

SCIENCE PROBLEMS.UZ

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SPR1342V5SI4Y2025

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

***№ S/4 (5) – 2025***

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**TOSHKENT-2025**

## BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

## TAHRIR HAY’ATI:

*07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O‘zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahammatovich – tarix fanlari doktori, O‘zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o‘g‘li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo‘limi.

*08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O‘ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg‘ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

*09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo‘raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G‘aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, “Tashkent International University of Education” xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo‘min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O‘roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

*10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko‘chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G‘aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

*12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat Gʻaybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), Oʻzbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Joʻrayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom oʻgʻli — yuridik fanlar boʻyicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

*13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, Oʻzbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), Samarqanddavlatuniversiteti.

*19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport boʻyicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Oʻzbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot boʻlimi psixologik xizmat boshligʻi.

*22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Poʻlatovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston xalqaro islom akademiyasi.

*23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Boʻtayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, Oʻzbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

**OAK Roʻyxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari boʻyicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar roʻyxatiga kiritilgan.

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat roʻyxatiga olingan.

**Muassis**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyogʻoch koʻchasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bogʻlanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
5-jild, 4-maxsus son (May, 2025). - 295 bet.

**MUNDARIJA**

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

*Abduraxmonov Mirsaid Muzaffarovich*
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING HUQUQIY ASOSLARI YARATILISHI ........ 10-16

*Atamuratova Dilafruz*
TURKISTON VAQTLI MATBUOTI TARIXI: XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI ........ 17-22

*Abdushukurova Iqbol*
TARIXIY KVESTLARNI TASHKIL QILISH USULLARI ........ 23-27

*Redjapov Doniyor*
JANUBIY OROLBO‘YI AHOLISI HARBIY SAN’ATINING TARIXIY ILDIZLARI XUSUSIDA ........ 28-31

*Sultanov Samandar*
QUYI ZARAFSHON VODIYSI GEOGRAFIK XUSUSIYATI: PALEOEKOLOGIYASI JARAYONLARIGA DOIR BA’ZI CHIZGILAR ........ 32-35

*Matyakubov G‘ayrat*
XORAZM VOHASIDA IJTIMOIY-IQTISODIY VA ETNIK-MADANIY MUNOSABATLAR RIVOJLANISHIGA DOIR BA’ZI CHIZGILAR (XIII-XV ASRLAR)........ 36-39

*Eshkuvatov Muhammad Keldiyor o‘g‘li*
MARKAZIY OSIYO BOZORLARI (XIX ASR YEVROPALIK SAYYOHLAR NIGOHIDA) ........ 40-45

*G‘aniyev Mirjalol*
QADIMGI TURKLARDA IJTIMOIY HAYOT ........ 46-51

**08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

*Abdullaev Altinbek*
KORXONALARDA UN MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH LOYIHASI BOSH BYUDJETINING METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 52-66

*Latipov Ashur Ali, Umarova Muzira*
INVESTITSIYA STRATEGIYASI VA UNING MENEJMENTDAGI O‘RNI ........ 67-71

*Rustamova Sayyora*
STRATEGIK BOSHQARUV-RAQOBAT USTUNLIGINING ASOSI ........ 72-77

*Буранова Лола, Арипова Азиза*
РАЗВИТИЕ ИНСТРУМЕНТА ДОСУДЕБНОГО РАЗРЕШЕНИЯ НАЛОГОВЫХ СПОРОВ ........ 78-87

*Maxkamov Navruzjon Tuxtamishovich*
KORXONALAR BOSHQARUVIDA “YASHIL” IQTISODIYOT TAMOYILLARINI QO‘LLASH AHAMIYATI ........ 88-94

**09.00.00 – FALSAFA FANLARI**

*Saidov Xakim G‘afurovich*
TALABALARNI HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH – DAVLAT SIYOSATI DARAJASIDA ........ 95-98

*Kadirova Ziyoda*
ILMIY IJODNING IJTIMOIY, MADANIY VA TARIXIY O‘LCHAMLARI ........ 99-104

*Muzaffarov Navruzxon Baxronovich*
SHAYX XUDOYDOD VALINING INSON VA OLAM MUNOSABATLARIGA OID QARASHLARINING FALSAFIY TAHLILI ........ 105-108

*Raxmatova Mexrinoz Majitovna*
YOSHLAR MA'NAVIY SALOHIYATINI YUKSALTIRISH BORASIDAGI DAVLAT SIYOSATINING NAZARIY-HUQUQIY VA FALSAFIY ASOSLARI ........ 109-113

*Karimova Lola Muzafarovna*
IJTIMOIY MOBILLIK NAZARIYASIGA YONDASHUVLARNING TARIXIY TAHLILI ........ 114-119

*Jumayeva Shahlo Suyunovna*
JAN POL SARTRNING EKZISTENSIAL FALSAFASIDA ERKINLIK VA YOLG'IZLIK MASALALARINI YORITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ........ 120-125

*Djurayev G'olib*
JAN POL SARTR VA ALBER KAMYU FALSAFIY QARARSHLARIDA ERKINLIK MASALASI ........ 126-130

*Rajabov O'tkirjon*
KONSENSUS MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA "TEMUR TUZUKLARI" ASARINING AHAMIYATI ........ 131-134

*Bekmuhammadova Sabrina Ismoil qizi*
GENDER ZO'RAVONLIGIGA QARSHI KURASH CHORALARI ........ 135-139

*Xudoykulov Azamat, Beshimova Aziza*
MA'NAVIY BARKAMOL INSON TUSHUNCHASI VA UNING MOHIYATI ........ 140-144

**10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI**

*Abduganiyeva Djamila Rustamovna*
MACHINE TRANSLATION POST-EDITING THROUGH A HERMENEUTIC LENS ........ 145-151

*Murtazayeva Xadicha*
INGLIZ VA O'ZBEK TIBBIY TERMINOLOGIYASINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI ........ 152-155

*Несипбаева Саодатхан*
ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕДАЧИ АМЕРИКАНСКИХ ДИАЛЕКТИЗМОВ И ПРОСТОРЕЧИЙ В РУССКИХ ПЕРЕВОДАХ "ТОМА СОЙЕРА" ........ 156-160

*Axmedjanova Farida, Toirova Shohida*
XX ASRDA AYOL OBRAZINING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTI ........ 161-165

*O'rinova Shoxsanamxon Nosirjon qizi*
TAHDID NUTQIY AKTLARI: LINGVOPRAGMATIK TAHLIL VA MENASIV KOMMUNIKATSIYA XUSUSIYATLARI ........ 166-170

**12.00.00 – YURIDIK FANLAR**

*Salaev Nodirbek*
PENITENSIAR TIZIM VA UNING DAVLAT BOSHQARUVIDAGI O'RNI ........ 171-178

*Турсунов Ойбек Батирович*
МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ СОТРУДНИЧЕСТВА ГОСУДАРСТВ РЕГИОНА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ ........ 179-184

*Xakimova Inobatxon*
XOTIN-QIZLAR HUQUQLARINING XALQARO HUQUQ DOIRASIDA SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI ........ 185-191

*Мардонов Амиржон Шерзод угли*
ПРАВОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ УПРАВЛЕНИЯ РИСКАМИ ПРИ ПРИМЕНЕНИИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СИСТЕМЕ БАНКОВСКОГО СКОРИНГА .............. 192-202

*Jonuzoqova Yulduz Izzatulla qizi*
AXBOROT TEXNOLOGIYALARI SOHASIDAGI TRANSMILLIY JINOYATLARGA QARSHI KURASHISHDA KONVENSIONAL VA INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH .............................................................................................. 203-207

*Xolmo'minov Shavkat Jumaevich*
EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI HUQUQIY TA'MINLASH SOHASIDAGI MUHIM TASHABBUSLAR VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI .................................... 208-215

*Khudayberganova Nigina To'lqin qizi*
THE NOTION AND CODIFICATION OF THE LAW ON SPECIAL MISSIONS IN INTERNATIONAL LAW .............................................................................................. 216-221

*Саидов Бобур Бахромжонович*
МЕЖДУНАРОДНОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО В ВОПРОСАХ ИНТЕРНЕТ-ЮРИСДИКЦИИ: ТЕНДЕНЦИИ УНИФИКАЦИИ ПРАВОВЫХ НОРМ И ПЕРСПЕКТИВЫ УЧАСТИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В ГЛОБАЛЬНЫХ МЕХАНИЗМАХ РЕГУЛИРОВАНИЯ .... 222-229

*Normurodova Behro'za Xolmo'minovna*
RAQAMLI DALILLARNI TO'PLASH VA TAHLIL QILISHDA INTERPOL VA EUROPOL TAJRIBASI: O'ZBEKISTON UCHUN AMALIY AHAMIYATI ........................................................ 230-236

*Qilichova Kamola Luqmonxon qizi*
DINIY MAZMUNDAGI MATERIALLARNI QONUNGA XILOF RAVISHDA TAYYORLASH, SAQLASH, OLIB KIRISH VA TARQATISH JINOYATLARINING YURIDIK TARKIB BELGILARI .............................................................................................. 237-248

*Shagilov Pulatbek Koptleuovich*
BEZORILIKNING VIRTUAL YUZI: HUQUQIY BAHOLASH VA JAVOBGARLIK MASALALARI ........................................................ 249-256

## 13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

*Imomov Sirojiddin Ilxomovich*
SPORT FAOLIYATI MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDA KASBIY-PEDAGOGIK TA'MINOTINING AHAMIYATI .............................................................................................. 257-263

*Khayrova Madina Rasimovna*
NATYURMORT JANRIDA ISHLAGAN RASSOMLAR ASARLARINING REKONSTRUKTIV TAHLILI .............................................................................................. 264-269

*Mirkasimova Zilola Alisherovna*
MAKTABGACHA YOSHDA NUTQ RIVOJI BOSQICHLARI ........................................................ 270-273

*Xudaykulova Shaxlo Mamaniyozovna*
AXLOQIY RIVOJLANISH VA NEYROPEDAGOGIK USULLARNING O'ZARO TA'SIRI ........... 274-278

*Shakirova Dildora Abdumalikovna*
NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI XORIJIY VA MILLIY TAJRIBA ASOSIDA BAHOLASH ........................................................ 279-285

*Djurayeva Nargis Narkulovna*
TABIIY FANLAR DARSLARINI TASHKIL ETISHDA INTENSIV METODLARNING QO'LLANILISHI .............................................................................................. 286-290

*Baltayeva Ma'mura, Davletova Bikajon*
MEDIA LITERACY TEACHING METHODOLOGY ........................................................................ 291-294

SCIENCE PROBLEMS.UZ
Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 4 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 05 May 2025
**Accepted:** 15 May 2025
**Published:** 30 May 2025

*Article / Original Paper*

# METHODS OF ORGANIZING HISTORICAL QUESTS

**Abdushukurova Ikbol Kuchkarovna**
Gulistan State University,
Senior Lecturer, Department of History and Social Sciences

**Abstract.** Organization of quests in history lessons allows to maintain interest in the subject of pupils and students, solve problems of formation of competencies of the teacher, improves the quality of education. The article provides examples of organization of historical quest in game form.

**Keywords:** quest, interactive game, real event, logic, critical thinking, work in group, interest.

# TARIXIY KVESTLARNI TASHKIL QILISH USULLARI

**Abdushukurova Iqbol Kuchkarovna**
Guliston davlat universiteti
Tarix va ijtimoiy fanlar kafedrasi katta oʻqituvchisi
E-mail: ikbol_ka_23@mail.ru

**Annotatsiya.** Tarix darslarida kvestlarni tashkil qilish oʻquvchi va talabalarda fanga qiziqishni saqlab qolishga, oʻqituvchida kompetensiyalarni shakllantirish vazifasini hal qilishga imkon beradi, ta’lim sifatini oshiradi. Maqolada tarixiy kvestlarni oʻyin shaklida tashkil qilish misollari keltirilgan.

**Kalit soʻzlar:** kvest, interfaol oʻyin, real voqea, mantiq, tanqidiy fikrlash, guruhda ishlash, qiziquvchanlik.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI4Y2025N03

**Kirish.** Ta’lim jarayonining raqobatbardoshligini oshirish va jozibadorligini oshirish uchun oʻqitishning innovatsion tadqiqot usullaridan biri kvest hisoblanadi. Kvest katta rivojlantiruvchi, tarbiyaviy, oʻqitish ahamiyatga ega boʻlib, talaba-oʻquvchilarda bilim olish va tegishli kompetensiyalarni shakllantirish uchun motivatsiyani shakllantirish shartlaridan biridir [1, b.101].

Tarixiy kvest – bu interfaol oʻyin boʻlib, unda ishtirokchilar real voqealarga asoslangan topshiriqlarni bajarishadi.

Tarixiy kvestlarning formati bir nechta boʻlib, ularga quyidagilar kiradi:

- voqelikdagi kvestlar — biron-bir tarixiy davrni sahnalashtirish, autentik lokatsiyani yaratish, kostyumlar va rekvizitlardan foydalanish;

- shahar kvestlari – shahardagi tarixiy obidalarda, koʻchalarda savollar va topishmoqlarga javoblar topish;

- ta’limiy kvestlar – tarix darsini hayajonli sarguzashtga aylantirish.

Bunday kvestlarda oʻqitish va oʻyin uygʻunlashib, oʻquvchilarda darsga qiziqishini oshiradi. Tarixiy kostyumlar, dekoratsiyalar zamona haqida tasavvur hosil qiladi. Topshiriqlarni bajarish uchun ajratilgan vaqt mantiqiy fikrlashga undaydi. Oʻquvchilar tarixiy voqealarda qatnashib, materialni tezroq oʻzlashtiradilar. Guruhda ishlash esa oʻyinni yanada

qiziqarli qiladi. Bunday kvest-oʻyinlar mantiqiy va tanqidiy fikrlashni talab qiladi, oʻquvchilar tarixiy faktlarni tahlil qilib, xulosa chiqarishga oʻrganadilar. Ularda diqqatlilik shakllantiriladi, har bir kichik syujet savolga javob boʻlishi mumkin. Guruhda ishlashni oʻrgatadi, savolga javobni birgalikda topish, topshiriqni bajarish uchun birgalikda yechimni topish oʻquvchilarni jamoada ishlashga oʻrgatadi, oʻzaro doʻstlik, hamfikrlilikni tarbiyalaydi. Oʻquvchilarda qiziquvchanlikni oshiradi, chunki bunday kvestlardan keyin tarixiy voqealarga qiziqish oshadi, vujudga kelgan savollarga kitoblardan va boshqa manbalardan javob izlashga undaydi, oʻquvchilar bilimini orttiradi.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** N.N.Chernoivanova Volgograd shahri misolida oʻlkashunoslik kvest oʻyinining marshrut xaritasini keltiradi [4]. O.V. Nikiforov kvest yordamida muzeylar, meʼmoriy va arxeologik yodgorliklar, madaniy obyektlarni oʻrganib, oʻquvchi va talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni tavsiya qiladi [2]. Soʻnggi yillarda oʻzbekistonlik olimlar va oʻqituvchilar ham kvest texnologiyalaridan foydalanishga harakat qilib, tajriba natijalarini ilmiy muhokamaga kiritishmoqda. Jumladan D.Oʻ.Qarshiyeva ““Kvest” texnologiyasi asosida maktab oʻqituvchilarining darslarni loyihalash kompetenligini rivojlantirish (Uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi misolida)” mavzusida pedagogika fanlari boʻyicha dissertatsiyasi yoqlagan [5]. Olimaning taʼkidlashicha, “Kvest” texnologiyasi asosida maktab oʻqituvchilarining darslarni loyihalashga oid kompetentligini rivojlantirish vositasi Yii 2.0 dasturiy taʼminot platformasida tinglovchilarning vebga moslashtirilgan oʻquv resurslari yordamida kvest darslarini loyihalash malakalarini oshirishga qaratilgan “Qvest.uz” axborot taʼlim muhiti va “Quest” mobil ilovasini yaratish yoʻlga qoʻyilgan. Shuni taʼkidlash joizki, kvest texnologiyasi foydalanish usullariga bagʻishlangan ilmiy maqolalar ayniqsa xorijiy tillarni oʻqitish boʻyicha koʻp yozilgan.

**Muhokama va natijalar.** Kvestlarning maqsadi va vazifalari: tarix oʻqituvchisining kreativligini rivojlantirish, oʻquvchilarni faollashtirish va bilimini mustahkamlash, oʻquvchilarda oʻzaro aloqalarni shakllantirish, ijtimoiy kommunikatsiya usullarini diversifikatsiya qilishga yordamlashish, oʻquvchilar jamoasini muammolarni birgalikda yechishga oʻrgatish va hokazo.

Tarixiy kvestni yaratish uchun oʻqituvchi maʼlum mavzuga oid topshiriqlarni tuzishi kerak. Topshiriqlar oson, oʻrtacha va murakkab boʻlishi mumkin. Oʻquv xonasi va oʻtkazish vaqti tanlanadi. Odatda tarixiy kvestlar darsdan keyin yoki mustaqil taʼlim darslarida oʻtkazilishi tavsiya etiladi. Tarixiy kvest sayohat bilan bogʻlansa, shanba yoki yakshanba kuni sayohat oʻtkazish mumkin. Shuningdek, tarixiy-oʻlkashunoslik kvestlarini tuzishda uning ishtirokchilari Oʻzbekiston tarixini mintaqaviy aspektda oʻrganishini, madaniy maʼrifatning faol subyektlariga aylanishini, muzeylar makonini, meʼmoriy va arxeologik yodgorliklarni oʻzlashtirishini, umuman xalqimizning moddiy va maʼnaviy madaniyatini oʻrganishini eʼtiborga olish zarur boʻladi. Bu borada kvest mazmunini tanlash, gʻoyani yaratish, sharoitlarni oʻrganishda oʻqituvchida qiyinchilik tugʻdirishi mumkin [2]. Shuning uchun oʻqituvchi mutaxassis tarixchi va arxeolog olimlar bilan maslahatlashsa yaxshi boʻladi.

Kvest-oʻyinda topshiriqlar konvertsiz va konvertli boʻladi.

Konvertsiz topshiriqlar oʻtilgan oʻquv materialiga oid savollardan iborat boʻlib, oʻquvchilarda mantiqiy fikrlash va aql-idrokni rivojlantirishga qaratiladi. Bunda topshiriqni oʻqish uchun topshiriq matni yozilgan qogʻoz qismlarini topish va koʻrsatilgan raqamlarga tayanib, ularni birlashtirish kerak boʻladi. Qogʻoz qismlari maktabning turli joylarida

yashiringan boʻlishi mumkin. Oʻquvchilarga maktab rejasi yeki xaritasi beriladi, unda qogʻoz qismlarini yashiringan joylar koʻrsatiladi. Yoki dars mavzusiga oid xarita yoki tarixiy obidaning rasmi qaychi bilan qirqilib, qismlarini toʻgʻri joylashtirish kerak boʻladi. Qismlar orqasida topshiriqning alohida soʻzlari yozilgan boʻladi va tartib raqami koʻrsatiladi. Matnni toʻgʻri yigʻib, topshiriq oʻqiladi va bajariladi.

Uchinchi usul shundan iboratki, mavzuga oid maʼruza matnida maʼlum harflar qizil flomaster bilan koʻrsatiladi. Ularni tartib bilan yozib olib, maʼlumot oʻqib olinadi.

Toʻrtinchi usul: topshiriq matni Morze azbukasi yordamida yoziladi.

Konvertdagi topshiriqlar quyidagi usullarda boʻlishi mumkin:

- krossvordni yechib, kalit soʻzini topish;
- voqealar yoki atamalarni xronologik tartibda joylashtirish;
- berilgan hikoyada koʻrsatilgan joyni topish va xaritada koʻrsatish, u yerda qaysi voqea sodir boʻlganini topish.

Oʻquvchilarni ragʻbatlantirish:

- baho yoki ball qoʻyish;
- sertifikatlar berish;
- hajviy ragʻbatlardan ham foydalanish mumkin: masalan, keyingi darsga biroz kechikib kelishga ruxsat berish, daftarni yoki kitobni esdan chiqarish, uy vazifasini bajarmaslikka ruxsat berish va hokazo.

Kvestlarni oʻtkazishda zaif tomonlar: oʻtkazish vaqti (darsdan keyin, darsda yoki mustaqil taʼlim darsida); topshiriq qismlarini topishda maktab atrofida harakatlanish xavfsizligini taʼminlash, maktab maʼmuriyatiga bildirish; kvestni oʻtkazishda boshqaoʻqituvchini yoki sinf rahbarini jalb qilish.

Tarix yoʻnalishi talabalari uchun Oʻrta asrlar tarixidan quyidagi kvestni oʻtkazish mumkin:

1-xat.

- 732-yilda Puatye jangida arablarning Yevropaga yurishini kim toʻxtatdi?
- Agar bu Karl Martell deb oʻylasangiz, 13 xonara boring.
- Agar bu Pipin Kalta deb oʻylasangiz, 17 xonaga boring.
- Agar bu Karl Buyuk deb oʻylasangiz, 18 xonaga boring.
- Agar bu Xlodvig deb oʻylasangiz, 20 xonaga boring.

2-xat.

Koʻrsatilgan xonalarda bitta stol ustidan ikkita kartochkani toping. Bitta kartochkada soʻzlar yozilgan, ikkinchisida – tabaqalar nomi yozilgan. Misol uchun:

- Atamalar berilgan kartochkalarni toifalar keltirilgan kartochkalar bilan moslang (qaysi soʻzlar qaysi tabaqalarga xos).
- Oʻrta asrlarda Yevropadagi eng katta tabaqani toping.
- Ushbu tabaqa uchun soʻzlarni toping, ular bilan gaplar tuzing.

*Tabaqalar va soʻzlar*

| | | |
|---|---|---|
| Ritsarlar | Ommaj | Barshchina |
| Dehqonlar | Feod | Interdikt |
| Ruhoniylar | Obrok | Yepiskop |

Vassalitet Borona Abbat

3-xat.

A) Katalaun dalalaridagi jang Rim imperiyasining qaysi yarmida boʻlib oʻtgan? Sharqda boʻlsa, 21-xonaga, Gʻarbda boʻlsa, 34-xonaga boring.

B) Buyuk Karlning nechta nevaralari imperiyaning Verden boʻlinishida qatnashgan boʻlsa, oʻsha sondagi kabinetga kiring. Bu nevaralarning ismlari yozilgan kartochkani oling.

B) Vizantiya imperiyasida Nik qoʻzgʻoloni necha yil davom etgan? Oʻsha sondagi kabinetga kiring. Tarixiy shaxslarning ismlari yozilgan kartochkani oling.

4-xat.

Kartochkalarda voqealarning nomlari yozilgan. Har bir kartochkada bitta katta harf bor. Voqealarni xronologik tartibda toʻgʻri joylashtirsangiz, harflardan yozuv tuziladi.

Masalan, quyidagi tarixiy voqealar xronologik tartibda joylashtiriladi:

- Arab xalifaligida Abbosiylar sulolasi hokimiyat tepasiga keladi
- Buyuk Otton Muqaddas Rim imperiyasini qayta tiklaydi
- Verden imperiyasining boʻlinishi
- Buyuk Karl imperatorga boʻladi
- Franklar va arablar oʻrtasidagi Puatye jangi
- Arab xalifaligining tashkil topishi
- Rim imperiyasining Sharqiy va Gʻarbiyga boʻlinishi
- Gotlar tomonidan Rimning bosib olinishi
- Vandallar tomonidan Rimning bosib olinishi
- Kataloniya dalalaridagi jang
- Imperator Yustinian hukmronligining boshlanishi
- Xlodvigning Galliyada Siagriy ustidan gʻalaba qozonishi
- Muhammadning Makkadan Madinaga hijrati
- Gʻarbiy Rim imperiyasining qulashi
- Konstantinopolda Nikning qoʻzgʻoloni

5- xat.

Savollarga javob bering:

- Erkin shaharning saylangan rahbarining nomi nima deb atalgan?
- Ritsarlarning musobaqalari qanday nomlangan?
- Oʻzini oʻzi boshqarish huquqiga erishgan shahar qanday nomlangan?
- 455 yilda Rimni talon-taroj qilgan qabila.
- “Dangasa qirollar” oʻrniga barcha muammolarni hal qilgan Bosh vazir kim?
- Shahar kengashi aʼzolari.
- Frank qirollarining Xlodvig asos solgan birinchi sulolasi.
- Shimoliy Frantsiyadagi mintaqa, IX-asrda Yevropaga bostirib kirgan shimoldan kelgan jangchilar sharafiga nomlangan.

6-xat.

Kartochkalarda tarixiy shaxslarning nomlari keltirilgan. Ularni xronologik tartibda joylashtirib, qayerda hukmronlik qilganini va qaysi sulolaga mansubligini yozing.

Xlodvig

Yustinian

Karl Martell

Muhammad

T.V.Pechnikova fishboun va klaster tuzish, ishchi varaqqa qarab, ma’ruza matniga savollar tuzish, “Blum romashkasi” oʻyini oʻtkazish kabi usullardan foylanishni tavsiya qiladi [3, b.30]. Kvest oʻyinida zukkolikni namoyon etish, xotirani va diqqatni rivojlantirish, topqirlik va tezkorlikni koʻrsatish zarur. Tarixiy kvestlar oʻquvchi va talabalarga oʻz bilimlarini takomillashtirishga, oʻtilgan materialni eslashga va mustahkamlashga, yangi narsalarni bilib olishga ordam beradi.

Oʻyin shartlari: Oʻyinni yakunlash va finalga chiqish uchun ishtirokchilar har bir bosqichda xaritaning bir qismini olishlari kerak;

Xaritaning qismlari faqat har bir bosqich shartlari yuqori darajada bajarilgan taqdirdagina beriladi (yordamchining ixtiyoriga koʻra).

Xarita qismlari oxir-oqibat bitta mavzuga oid (hikoya) xaritasiga yigʻilishi kerak boʻlgan pazlning qismlaridan iborat boʻlishi kerak.

Tarixiy kvestlarni barcha asosiy va yordamchi tarixiy fanlardan – Umumiy tarix, Oʻzbekiston tarixi, Oʻlkashunoslik, Toponimika, Arxeologiya, Numizmatika, Manbashunoslik va boshqalardan tuzish va oʻtkazish mumkin. Birgina Amir Temur va Temuriylar davri tarixiga oid kvest topshiriqlarida bir nechta fan integratsiyasi ta’minlanishiga erishish mumkin. Bundan tashqari, bu mavzudagi kvestni oʻtkazish ma’naviy tarbiyada ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu kvestni hatto Samarqand shahriga ekskursiya uyushtirib oʻtkazish mumkin.

**Xulosa.** Kvestni ta’lim jarayoniga samarali kiritish mumkin, chunki u oʻqitish va oʻrganishning tizimli-faoliyatli tamoyilini amalga oshirishga imkon beradi (bilimni passiv egallashdan koʻra talabalarning faol faoliyati tufayli) va muhim kognitiv ta’sirga ega (topshiriqlar turli xil mavzular, audio va video materiallar, kitoblar va boshqalar bilan individual va jamoaviy ishlarni oʻz ichiga olishi mumkin) va har qanday yosh toifasiga moslashtirilishi mumkin [1, b.105].

Shunday qilib, kvest oʻquvchilarning tarixga qiziqishini faollashtirishga, ularda muloqot qobiliyatlari va ijodkorlikni rivojlantirishga, an’anaviy va noan’anaviy manbalardan foydali ma’lumotlarni topish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi. Kvest texnologiyasi asosida axborotlarga tahliliy va tanqidiy munosabatini shakllantirish jarayonida ijodiy yondashuvga asoslanish zarurligi hamda talabalaring ijodiy oʻz-oʻzini namoyon etishiga asosiy e’tibor qaratiladi.

## Adabiyotlar/Литература/References:


1. Абдушукурова, И. (2024). КЛАССИФИКАЦИЯ КВЕСТ-ТЕХНОЛОГИЙ. *Interpretation and researches*, (24 (46)). – P.101-105. https://scholar.google.co.in/scholar?q=https://inlibrary.uz/index.php/international-scientific/article/view/70170&hl=ru&as_sdt=0,5
2. Никифоров О.В. Исторические квесты как опыт освоения национальной культуры. Ученые записки Новгородского государственного университета. 2018. №(2 (14), - С. 30.
3. Печникова Т. В. Образовательные квесты на уроках истории и обществознания // Образ действия. 2023. Вып. 3 «Реализуем ФГОС ОО. Социально-гуманитарное образование. Лучшие практики». - С. 28–32.
4. Черноиванова Н.Н. Применение квест-технологии при изучении исторического краеведения. // Информ-образование. 2023. Вып.1.
5. https://oak.uz/pages/10411

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ S/4 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).